

№ 2 (6)
2025



ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIYASI
NÓKIS FILIALI

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI / ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА / BULLETIN OF MUSIC AND ART

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSI

ILIMY-METODIKALÍQ JURNAL





**ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ JOQARÍ BILIMLENDIRIW,
ILIM HÁM INNOVACIYALAR MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN RESPUBLIKASÍ MÁDENIYAT MINISTRIGI
ÓZBEKSTAN MÁMLEKETLIK KONSERVATORIASÍ
NÓKIS FILIALÍ**

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikaliq jurnal

MUSIQA VA SAN'AT AXBOROTNOMASI
Ilmiy-uslubiy jurnal

ВЕСТНИК МУЗЫКИ И ИСКУССТВА
Научно-методический журнал

BULLETIN OF MUSIC AND ART
Scientific-methodical journal

№ 2(6)/2025

SHÓLKEMLESTIRIWSHI:

Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali

Bas redaktor: – Allanbaev Rudakiy, *professor*

Juwaplı xatker: – Kamalova Difuza, *filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori, docent.*

REDKOLLEGIYA AGZALARI:

OZODBEK NAZARBEKOV – Ózbekstan Respublikası Mádeniyat ministri, professor;

AZIZBEK TURDIEV – Ózbekstan Respublikası Mektepge shekemgi hám mektep bilimlendiriw ministri orınbasarı, filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

KAMOLIDDIN URINBAYEV – Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası rektori, professor;

AMANULLA RIZAYEV – kórkem ónertanıw ilimleriniń kandidati, professor;

HIKMAT RAJABOV – professor;

ORAZALI TOSHMATOV – professor;

BAXT AZIMOV – pedagogika ilimleri kandidati, docent,

MUHAMMAD TOLAXOJAEVA – kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

MARFUA XAMIDOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

BOLTABOY SHODIYEV - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, docent;

OZODA TOSHMATOVA - kórkem ónertanıw ilimleriniń doktori, professor;

SAYYORA ĞAFUROVA – professor;

OYDIN ABDULLAEVA – professor;

IRODA MIRTALIPOVA – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

PARAXAT MAMUTOV – kórkem ónertanıw ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD);

QURBANBAY JARIMBETOV – filologiya ilimleriniń doktori, professor;

ALIMA BERDIMURATOVA – filosofiya ilimleriniń doktori, professor;

ZIYADA BEKBERGENOVA – filologiya ilimleriniń doktori (DSc), professor;

ARTIQBAY EREJEPOV – pedagogika ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

JANABAY MARZIYAEV – filologiya ilimleri boyınsha filosofiya doktori (PhD), docent;

Jurnal qaraqalpaq, ózbek, rus hám ingliz tillerinde baspadan shıǵarıladı. Jurnal Ózbekstan Respublikası Prezidenti Administraciyası janındaǵı Málimleme hám ǵalaba kommunikaciýalar agentligi tárepinen mámleketlik dizimnen ótkerilgen. №047569 4-oktyabr, 2022-jıl.

Ózbekstan Respublikası Joqarı Attestaciya Komissiyasınıń 2024-jıl 30-iyuldaǵı 358-sanlı qararı tiykarında jurnal 17.00.00-Kórkem ónertanıw ilimleri jónelisi boyınsha dissertaciya nátiyjelerin baspadan shıǵarıw ushın arnalǵan jetekshi ilimiy jurnallar qatarına kiritilgen.

Redakciya mánzili: Ózbekstan mámleketlik konservatoriyası Nókis filiali Sh.Abdirov 2-jay.

E-mail: ozdknf@edu.uz, UZDK_Nukus@exat. Tel: 551020540 Veb-sayt: <https://science.uzdknf.uz/>

ISSN-2181-4112

ARIYALAR USTIDA ISHLASH JARAYONIDA JO‘RNAVOZNING AHAMIYATI

Kazakbayeva M.S.

O‘zbekiston davlat konservatoriyasi

Annotatsiya: Mazkur maqola ariya ustida ishlash jarayonida jo‘rnavezning ahamiyati muhimligiga bag‘ishlangan. Jo‘rnavez – bu shunchaki akkompaniator emas, balki ariyani talqin qilishda to‘laqonli hammuallifdir. Uning ahamiyati shundaki, u vokal liniyasi va orkestr partiturasini bog‘laydi, xonandani sahnaviy ijroga tayyorlaydi hamda badiiy obrazni ochishga yordam beradi. Ariya har doim yakkaxon va orkestr o‘rtasidagi dialogdir, jo‘rnavez esa cholg‘uda butun orkestrni “o‘rnini egallaydi” va shu bilan birga xonandaga musiqiy dramaturgiya orqali obrazni chuqurroq ochishga yordam beradi.

Kalit so‘zlar: ariya, yakkaxon, jo‘rnavez, orkestr, kompozitor, partitura, opera, obraz.

Аннотация: Данная статья посвящена роли концертмейстера в работе с ариями. Концертмейстер - это не просто аккомпаниатор, а полноценный соавтор интерпретации арии. Его значение заключается в том, что он соединяет вокальную линию и оркестровую партитуру, подготавливает певца к сценическому воплощению и помогает раскрыть художественный образ. Ария – это всегда диалог солиста с оркестром, а концертмейстер на инструменте “замещает” целый оркестр, а также помогает певцу глубже раскрыть образ персонажа через музыкальную драматургию.

Ключевые слова: ария, солист, концертмейстер, оркестр, композитор, партитура, опера, образ.

Annotation: This article is devoted to the role of the accompanist (concertmaster) in working with arias. A concertmaster is not just an accompanist, but a full co-author of the interpretation of an aria. His significance lies in the fact that he connects the vocal line and the orchestral score, prepares the singer for stage performance, and helps reveal the artistic image. An aria is always a dialogue between the soloist and the orchestra, and the concertmaster at the instrument “substitutes” for the whole orchestra, while also helping the singer to reveal the character’s image more deeply through musical dramaturgy.

Keywords: aria, soloist, concertmaster, orchestra, composer, score, opera, image.

Kirish: Bugungi kunda “Konsertmeysterlik mahorati” fani asosan yakka xonandalar bilan ishlash bejiz emas. Buning o‘ziga yarasha sabablari bor. Xususan, yakka xonandalar orqali musiqa tovushlarini eshitish, musiqa jumllarini ifodali tuzish, turli xildagi intonatsiyalarni ajratish tajribasiga ega bo‘lish mumkin. Shuningdek, yakka xonandalar bilan ishlash jarayonida, jo‘rnavoz-pianinochi kuylovchi ovozinig tovush chizig‘ini olib borishi, uning tembr va dinamikasini his qilishi, so‘z va kuy orasidagi birlikni bilishi, shu orqali turli nyuanslar kelib chiqish sabablari haqida tushunchalarga ega bo‘lishi lozim.

Mashhur pianinochi va pedagog A.Rubinshteyn darsda o‘z talabalaridan romans kuylab, o‘zi jo‘rnavozlik qilishni talab qilar edi. “Fortepianoda izohli kuylashni bilmagan musiqachi yaxshi ijro eta olmaydi” [6; 7, 20].

Asosiy qism: Xonandalik san’atining ahamiyati kattaligini tushuntirish oson. Musiqaning tarixiy rivojlanishi natijasida insonga kuy kuylashni, raqs esa ritmni hadya etgan. Fortepiano zarbli cholg‘ular turi hisoblanadi, unda chiroyli, mazmunli “kuylash” uchun yaxshi, rivojlangan tasavvurga ega bo‘lish talab etiladi. Bu usullar faqatgina chalish emas, balki anglab ijro etish, psixologik yondoshishga undaydi. Bu tushunchalarni amaliyotda qo‘llash uchun operadan olingan ariyalarni misol tariqasida ishlatish mumkin. Operalardan olingan ariyalar personaj obrazini to‘liq yoritmaydi: ariyagacha va undan keyin ham personaj opera dramaturgiyasi qonunlari bo‘yicha yashaydi. Ariya esa voqelikning muayyan lahzasinigina ifodalab, personaj holatini muayyan vaziyatdagina yetkazib beradi. Bunda “Ivan Susanin”, “Faust”, “Shoh kelini”, “Aleko”, “Karmen”, “Traviata” va boshqa ko‘plab operalardagi qahramonlar obrazlarining asar davomida o‘zgarib borishini eslash mumkin.

Ariya – go‘zal va boy kuy asosini badiiy jihatdan batafsil ifodalagan markaziy opera shakliga aylandi. U qo‘shiqbop ohang ustunlik qiluvchi, kompozitsion jihatdan birmuncha tugal janr bo‘lib, odatda bir obrazni, qahramonning bir emotsional holatini ifodalaydi va unga keng umumlashgan ifoda baxsh etadi.

Bir qadar o‘zgartirilgan ko‘rinishdagi uch qismli shakl – italyancha ariya strukturasinig xarakterli xususiyatidir. *Da capo* ariyasi italyanchadan “boshidan” degan ma’noni bildiradi.

Cholg‘u introduksiyasi va odatda davriya shaklida beriladigan mavzu bayoni bilan boshlanuvchi ariyaning birinchi qismi go‘yoki, badiiy obrazning boshlang‘ich voqeligi, uning ekspozitsiyasini tashkil etadi.

Ariyaning o‘rta qismi ko‘pincha rivojlanuvchi toifali bo‘lib, o‘zining lad-garmonik beqarorligi va ritmik chizmasining yangi figuralari bilan ajralib turadi.

Repriza (*da capo*) odatda boshlang'ich ohangning naqshinkor koloraturali variantlaridan iborat bo'ladi. *Da capo* ariyasi dinamik o'sishning yagona chizig'ini shaklning go'zal muvozanati bilan noyob tarzda muvofiqlashtiradi.

Koloraturali vokalizatsiya - yuksak emotsional ko'tarilish ifodasidir. Lirik tuyg'ularning keng qamrovda quyilib kelishi italyancha ariyaga keng tinglovchilar ommasini jalb etib, uni o'ta maftunkor qiluvchi o'sha emotsionallik va estetik ifodaning ochiqqligini baxsh etadi. Ariya aksariyat hollarda ilhombaxsh kulminatsiya (avj) bilan yakunlanadi.

Jo'rnavoz italyancha ariyalarning turli xil toifalari bilan tanishib chiqsa, foydadan holi bo'lmaydi. Bular kuyni rivojlantirish usullari va ritmik figuralar kabi o'zining xarakterli xususiyatlariga ega bo'lgan ariya-nolish, sho'x xarakterli ariya va patetik ariyadir. Shunday qilib, patetik ariya keng ohangi, ko'tarinki tonusi bilan ajralib tursa, sho'x ariyada odatda virtuoz koloratura, hajviy ariyada – hoholash, tez aytish ohanglari, nolish ariyasida esa kuychan, texnik mukammal, koloraturali virtuoz belkanto uslubi qo'llaniladi.

Italyan vokal maktabi asosida yotgan belkanto uslubiga alohida e'tibor qaratish zarur. Mazkur uslubning o'ziga xos qirradi – jarangining yengilligi va yoqimlilik, kantilenasi, kuyning o'ta bog'liqligi, koloraturaning mukammalligi va kuychanlikdir. Italyancha vokal maktabining eng yaxshi sifati – bu keng yaxshi nafasdir. Belkanto asosida avvalo, xonish jarangining go'zalligi, ravon tovush sadolantirish mahorati, tovushni bezash san'ati (*piano*, jarangning o'sib borishi), ovozning yengilligi va egiluvchanligi, notaning cho'zimdor jarangiga erishish iqtidori yotadi.

Italyancha ariya ustida ishlashni boshlayotib, operaning mazmuni va musiqiy dramaturgiyasini, ariya qahramonining xarakterini, uning tuzilishi va musiqiy-sahnaviy voqealarning umumiy rivojida rolini o'rganish zarur. Shuningdek, musiqa uslubining qirralarini aniqlash, buning uchun tarixiy va musiqashunoslik, vokal-metodik va badiiy materiallarni jalb etish zarur. Talabaga o'rganilayotgan italyan kompozitorlari ijodining asosida yotgan zamin, italyan operasining keyingi rivojiga turtki bo'lgan omillar xususida so'zlab berish foydalidir. Yosh jo'rnavoz e'tiborini italyan kompozitorlari ijodining italyan xalq musiqasi (shahar, qishloq) bilan bog'liqligiga, italyancha ariyalarda italyan qo'shiq va raqslarining ohanglari hamda ritmlari qayta ijod qilinganiga qaratish zarur.

Ishni ariyadan boshlagan jo'rnavoz, xuddi xonanda kabi mazkur parcha xarakterini, uning opera umumiy dramaturgiyasi konsepsiyasidagi o'rnini bilishi, qahramonning ruhiy holatini tasavvur qilishi kerak.

Kompozitor obrazni yaratayotganda qanday orkestr vositalaridan, tembr tavsiflaridan foydalanganini joʻrnavoz bilishi va yodda tutishi zarur. Shubhasizki, violonchel jarangiga taqlid fagotnikidan, skripkaga taqlid – fleytanikidan farq qilishi kerak.

Pianinochi-joʻrnavozga qanday uslubiy maslaxatlar berish mumkin? Avvalo, partitura bilan tanishish, agar iloji boʻlsa asar ijrosining audio yoki video yozuvini tinglash lozim. Bu asnoda koʻplab surʼatlar royal ijrosida birmuncha “siljiydi”. Bu orkestrga xos jarang choʻzimdorligiga erishishning ilojisiz ekanligi bilan izohlanadi. Pianinohida tovush atakasi shubhasiz, har qanday orkestr guruhidan koʻra birmuncha aniq, hatto keskin. Yana bir muhim holatni hisobga olish zarur. Royalda “hajmdor” (ayniqsa kulminatsiyalardagi) orkestr jarangini ifodalashga intilgan pianinochilar, ayni paytda cholgʻuda unga xos boʻlmagan jarangni sadolantirishga urinadi va bu asnoda *fortissimoda* yangraydigan ulugʻvor jarangni yoʻqotadi. Raxmaninov “Aleko”sidagi kavatina, Borodinning Igor ariyasi, Verdining Rigoletto ariyalaridagi kulminatsiyalarni qanchalik diqqat bilan ishlashimizni eslang. Ogʻir, salmoqli jarang pianinochilarda koʻpincha faqat *forteda* emas, balki *pianoda* ham yuzaga keladi. Bunda baʼzan ijrochilar emas, balki orkestr ovozlari toʻlib-toshgan klavir aybdor boʻladi. Xususan, bas registridagi sakrash yoʻli bilan chalinadigan va qoʻshni akkordlardan uzoqda joylashgan oktavalar kontrabaslar bilan kuchaytirilgan violonchellar *pizzicatociga* qaraganda sezilarli ravishda ogʻir, salmoqli va hajmdoroq yangraydi. Chaykovskiyning “Yevgeniy Onegin”idan Xat sahnasida, har ikki re-minorli lavhalarda (*Moderto assai quasi Andante*) bas oktavasi faqat dastlabki ikki taktli tuzilmada, qolganlarida esa oktavaning faqat yuqorgi notasini chalish kerak.

Opera parchalarini ijro etayotib, pianinochi goʻyoki oʻziga dirijorlik vazifasini oladi. Uning qoʻlida ijrochilar ansambli asarni chalishni boshlaydi, aniq ritmik pulsatsiyani saqlaydi.

Bir vaziyatni alohida taʼkidlashni istardik. Agar orkestrdagi biror ovoz vokal partiyasini takrorlasa, pianinochi shuni yodda tutishi kerakki, u qanchalik yaxshi chalmasin, royal tembri hech qachon inson ovozini oʻrnini bosolmaydi. Shu bois, bu takror yuz beradigan registri tabaqalash muhim: agar ovoz bilan unison boʻlsa, imkonqadar vazminroq chalish kerak, agar boshqa registrda boʻlsa, masalan, u yoki bu tomonga, oktava masofaga chekinsa bu jarangga qoʻshimcha boʻyoq kiritadi. Bu yerda aynan qaysi orkestr cholgʻusi vokal partiyasini takrorlashini ham bilish kerak.

Romansdan farqi nimadadir, opera ariyalari va sahnalarida dramaturgik vazifalar va mizanssenalar taqozo qiladigan katta miqdordagi surʼat oʻzgarishlari

mavjud. Operada turli xil ahamiyatga ega bo'lgan rechitativlar muhim o'rin egallaydi. Rechitativ italyan so'zidan olingan bo'lib, "ovoz chiqarib o'qish" yoki "deklamatsiya qilish" degan ma'noni anglatadi, yakkaxonandalar partiyalarida, opera saxnalarida qo'llanadi. Rechitativ bilan bir qatorda, unga yaqin tovush balandliklarida, rimtlarga asoslangan "nutqiy kuylash" deya nomlangan badiiy o'qish (melodeklamatsiya) va nutqiy deklamatsiya turlari xam ishlatiladi. Masalan, rechitativ secco (quruq rechitativ) ko'proq italyan operalaridan qo'llaniladi, ularda ifodaviy funksiyalarga ega bo'lmagan alohida akkordlar yangraydi. Pianinochining vazifasi – shu akkordlarga vaqtida tushish. Orkestr jo'rligida ijro etiladigan rechitativ *accompagnato* boshqa masala. Bunday rechitativning har bir iborasi, har bir akkordi katta dramaturgik ahamiyatga ega. "Boris Godunov", "Shoh kelin", "Pik xonim" kabi operalardagi rechitativlarni eslang. Eng oddiy misolni keltirish mumkin. "Ivan Susanin" operasidan Vanya ariyasining rechitativ qismidagi choraktaliklar bilan yozilgan akkordlar sakkiztalik bilan yozilgan akkordlardan sezilarli tarzda farq qiladi. Bu rechitativni royalda ijro etayotganda pianinochi choraktalik akkordlarning cho'zimdorligini va sakkiztaliklarning keskin urg'usini hisobga olishi kerak – faqat shundagina kerakli ifodaga erishiladi.

Xulosa: Opera ariyalariga ustida ishlash jarayoni konsertmeysterlik mahorati fanida muhim o'rin egallaydi. Shu sababli 1kursdan boshlab talabalarga turli ovozlarda ijro etiladigan ariyalar tanlanada shu bilan birga taniqli va konsert sahnalarida muntazam ijro etiladigan asarlar o'quv ish rejasiga kiritiladi.

Jo'rnavozlik sinfi o'qituvchisining vazifasi talabaga nafaqat jo'rnavozlik sohasida kasbiy malakalarni o'rttirish, balki uni xonanda, sozanda bilan jiddiy va puxta ishlashga o'rgatishdan ham iboratdir. Xonanda va jo'rnavoz o'rtasidagi bunday aloqaning barcha shakllari kompozitor g'oyalarini badiiy jihatdan ishonarlichiqishiga va o'ziga xos yorqin talqin yaratishga yo'naltirilgan. Jo'rnavoz mehnati chinakam mashaqqatli, ammo shunday bo'lsa-da, tinglovchi tomonidan olqishlar faqat yakkaxonga tegishli bo'ladi. Binobarin, vokal partiyasini o'rganishda jo'rnavoz o'rnini inkor etish qiyin. Tarix o'z solnomasiga ko'plab sharaflil xonandalar nomini kiritdi. Ammo shu o'rinda ularning shon-shuhratga olib kelgan hamrohlari – jo'rnavozlarni ham unutmaslik lozim.

Foydalangan adabiyotlar:

1. Шендерович Е. Трудности и их преодоление в оперных клавирах - М.: 1977.
2. Сафарова С. Итальянская музыка в классе концертмейстерского мастерства - Т.: 2002.

3. Чачава В. Работа над оперными клавирами. - М.: 1985.
4. Сафарова С. Работа над оперными ариями композиторов средней Азии и Казахстана в классе концертмейстерского мастерства. - Т.: 2002.
5. Полатханова Р. Работа над оперной сценой в классе концертмейстерского мастерства. - Т.: 2006.
6. Савари С. Основы аккомпанемента. – Харьков, 1993.

MAZMUNÍ

MUZÍKATANÍW

1	Султанова Е. ФОРТЕПИАННОЕ ТРИО ФРАНСИСА ПУЛЕНКА В КОНТЕКСТЕ ФРАНЦУЗСКОЙ КЛАССИЧЕСКОЙ МУЗЫКИ XX ВЕКА	3
2	Миркасымова Э.З. ИСПОЛНИТЕЛЬСКАЯ ИНТЕРПРЕТАЦИЯ КАК ВАЖНЕЙШИЙ ЭТАП ДЕЯТЕЛЬНОСТИ МУЗЫКАНТА	9
3	Мирсолихова Х.М. МУСИҚИЙ АСАР УСТИДА ИШЛАШ ЖАРАЁНИ ҲАҚИДА	16
4	Тожибоев С. ИСЛОМ ДИНИ БИЛАН БОҒЛИҚ МАРОСИМ ВА БАЙРАМЛАРДАҒИ МУСИҚИЙ АНЪАНАЛАР	21
5	Abatbaeva R.A. KOMPOZITORLAR IJODIDA BALLADA JANRINING SHAKLLANISHI VA BUGUNGI KUNDAGI AHAMIYATI	34

KÓRKEM ÓNER

6	Allanbaev R.O. “SUYMAGANGA SUYKALMA” MUSIQALI DRAMASINING O‘ZIGA XOS XUSUSIYATLARI	41
7	Аббарова М. ЎЗБЕКИСТОН ВА ҚОРАҚАЛПОҒИСТОН АЁЛ КОМПОЗИТОРЛАРИНИНГ ТАҒАҚҚУРИ МОҲИЯТИ	52
8	Aytmuratov B.K. AKTYOR INDIVIDUALLIGINI SHAKLLANTIRISHDA ROL YARATISH USLUBIYATINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI	59
9	Azimov K. DIRIJYORLIK TEXNIKASINING NAZARIY MASALALARI	68
10	Eminov N. “ALPOMISH” MUSIQALI DRAMASIGA AYRIM CHIZGILAR	73
11	Gulmanov I. DÁSTÚRIY HÁM ZAMANAGÓY MUZÍKADA DÁP ÁSBABÍNÍN RAWAJLANÍW BASQÍSHLARÍ	80
12	Jaqsımuratova B. VOKAL ATQARIWSHİLÍĞİNÍN TARIYXIY EVOLYUCIYASÍ	86
13	Karimova N. FESTIVAL TUSHUNCHASI VA ULARNIG ILMIY-NAZARIY ASOSLARI	92
14	Kazakbayeva M. ARIYALAR USTIDA ISHLASH JARAYONIDA JO‘RNAVOZNING AHAMIYATI	98
15	Kutekeeva R. QORAQALPOG‘ISTON OPERA SAN’ATIDA MILLIY OBRAZLAR TALQINI	104

16	Matjanova M. ATQARIWSHILIQ MADENIYATIDA KONCERTMEYSTERDIN TIYKARGI WAZIYPALARI	110
17	Sharipov N. ZAMONAVIY FANDA AYOL OLIMALARNING O'RNI	117
18	Osman Kopadze. THE SOFT POWER IMPACT OF TURKISH TELEVISION SERIES ON UZBEK SOCIETY	122
19	Paxratdinova L. SKRIPKANING KELIB CHIQISHI VA IJROCHILIK AN'ANALARI	130
20	Shukurov A. TEATR SAN'ATINI RIVOJLANTIRISHDA TARIXIY VA ZAMONAVIY YONDASHUV	136
21	Tursunov E. AN'ANAVIY YO'NALISHDAGI XONANDALIK ASARLARI BOSHQA MILLAT VAKILLARI IJROCHILIGIDA	147
22	Измаилов А.М. ФОРМИРОВАНИЕ ОРКЕСТРОВОЙ ФУНКЦИИ ЗВУКОВЫСОТНЫХ УДАРНЫХ ИНСТРУМЕНТОВ В XVI–XVII ВЕКАХ	153
23	Давыдова Т. СТИЛЕВЫЕ ОСОБЕННОСТИ СИМФОНИЧЕСКИХ ОПУСОВ ТУЛКУНА КУРБАНОВА	165
24	Миркасымова Э.З. ХУДОЖЕСТВЕННЫЕ И СТИЛЕВЫЕ ПРИНЦИПЫ ФОРТЕПИАННЫХ ЦИКЛОВ Д.САЙДАМИНОВОЙ.	170
25	Charshemov J.A. QARAQALPAQ KOMPOZITORLARININ XOR USHIN JAZILGAN SHIGARMALARI	177

MUZIKA PEDAGOGIKASI

26	Djumaniyazov U.M. XALQ MUSIQA IJODIYOTINI O'RGANISHGA PEDAGOGIK YONDASHUV	187
27	Yusupaliyeva D. YOSHLARNING MA'NAVIY TARBIYASINI TAKOMILLASHTIRISHDA MADANIYAT VA SAN'ATNING O'RNI VA AHAMIYATI	196
28	Muratbaev A. ORFF METODI TIYKARINDA MUZIKA SABAQLARINDA SAZ ASBAPLARDAN PAYDALANIW	204
29	Мелькумова Э.И. ФИЛОСОФСКО-МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВАНИЯ НАУЧНОГО ПОЗНАНИЯ: СТРУКТУРА, ЛОГИКА И ТРАНСФОРМАЦИЯ В КОНТЕКСТЕ СОВРЕМЕННОСТИ	210
30	Абдуллаева А. РАБОТА НАД ФОРТЕПИАННЫМИ ПЬЕСАМИ Р. ГЛИЭРА В КЛАССЕ ОБЩЕГО ФОРТЕПИАНО	217

31	Saidumarov I. ESTRADA XONANDALIGI SAN'ATI HAMDA VOKALDAN DARS BERISHDA INNOVATSION TEXNOLOGIYALARINING O'RNI VA AHAMIYATI	223
----	--	-----

JÁMIYETLIK-GUMANITAR PÁNLER

32	Бердиниязова Н.К. МЕҲНАТ ЖАМОАСИДА КАСАБА УЮШМАСИНИНГ ЎРНИ ВА АҲАМИЯТИ	228
33	Пердебаева К.Р. БАСПАСӨЗ ДИЗАЙНЫ ҮСТИНДЕ ИСЛЕЎ (Газетаның арнаўлы санлары анализи мысалында)	234

MUZÍKA HÁM KÓRKEM ÓNER
XABARSHÍSÍ
Ilimiy-metodikalıq jurnal

